

**O'QUVCHILARNI KASBIY KO'NIKMALARINI  
SHAKLLANTIRISH USULLARI****G'afforova Munira Nabiyevna***Samarqand viloyati. Toyloq tumani MMTB  
tasarrufidagi 51- maktab psixologi*

**Annotatsiya :** Ushbu maqola yosh avlodni kasbga yo'naltirishga bo'lgan e'tibor xaqida yozib o'tilgan. Siz bu maqolani mutolaa qilish davomida kasbiy tanlov va munosabat xaqida malumotlarga ega bo'lishingiz mumkin.

**Kalit so'zlari:** Yosh davrlari, ko'nikma, malaka, tajriba, mohiyat.....

Shiddat bilan rivojlanib kelayotgan vatanimiz kelajagi albatta yoshlar qo'lidadir. O'sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo'naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda ta'lim muassasalarining o'rnini va u yerda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining eng zaruriy, hayotiy vazifalaridan biri o'quvchi yoshlarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltira olishidir. Ularni kasb-hunarga yo'naltirishda shaxsiy moyillik, layoqat, qiziqishlari asosida hamda jamiyat talablariga mos holda ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, integral hususiyatga ega ilmiy-amaliy faoliyatdir.

O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayoni tashkiliy jihatdan ko'proq pedagogik harakterga ega bo'lsada, u mazmunan psixologik mohiyatga ega. Bu yo'nalish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlanib, o'rta maxsus kasb-hunar kollejarigacha davom ettiriladi. O'z vaqtida kasbga yo'naltirish o'quvchining hayotdagi o'rnini yaxshiroq egallashida muhimdir. Psixologik diagnostika va pedagogik tashxis ishlari ham ushbu soha bilan shug'ullanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida endilikda bizga faqatgina har tomonlama rivojlangan bola bo'libgina qolmasdan, balki har tomonlama sog'lom, aqlan rivojlangan bolani tarbiyalashda va unga bilim berish va kamolga yetkazishda har bir insonning asosiy burchi ekanligi uqtiriladi. O'qituvchining mahorati o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini topishlarida, kerakli mutaxassis, jamiyatning intellektual salohiyatli kadrlari bo'lib yetishishlarida, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda va kasb-hunarga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetensiyaga ega bo'lishlari, shaxsiy-kasbiy sifatlarni rivojlantirishlari, o'z ustilarida ishlash bilan

barobar xisoblanadi. Kasb-hunar tanlashda maqsadning to'g'ri qo'yilishi yartm g'alabadir. Bu g'alabani yuzaga chiqarishdagi qo'llanilgan vositalar, metodlar samaraliligi, sinovdan o'tgan bo'lishi ayni muddaodir. Kasbga old ma'lumotlarni tahlil qilish, natijalarni solishtirish, birlashtirish, o'quvchining kasbiy axborot bazasini boy'itishda qo'llanilgan filmlar, innovatsion yangiliklar vaziyatni baholay olishga yordam beradi.

Kasbiy o'zlikni anglash, kasb-hunarga yo'naltirish jarayonining tarkibiga singib ketgan component sifatida maqsadga yo'naltiruvchi, kuchaytiruvchi, korreksiya qiluvchi, yani oqimi hususiyatlarini belgilab beruvchi omil hisoblanadi.

O'quvchilarni ongli kasb-hunar tanlashiga ta'sir etuvchi omillar-uning individual-tipologik hususiyatlari yoki ichki imkoniyatlari va ehtiyojlari hisoblanadi. Bundan tashqari, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda kasbiy o'zlikni anglashning nomoyonligi ichki pozitsiyaning shakllanish qonunyatiga asoslanadi. Ichki pozitsiya o'z-o'zidan emas, balki sub'ektning tashqi muhit bilan uzluksiz aloqada bo'lishi va tashqi muhitning unga ta'sir etishi jarayonida shakllanadi. Bu kabi trening mashg'ulotlari yaxshi natija beradi.

Bu sifatlarni atrofizdagilar bizga aytishga qo'rqishadi yoki parvo qilishmaydi. Bu treningda esa bu haqida xohlaganicha gapirish mumkin. Biz hammamiz birgalikda bu kabi salbiy sifatlarni o'zimizdan bartaraf qilishga bugundanoq kirishishimiz kerak. Aks holda bu sifatlarni bizni buzg'unchilikka, vayronkorlikka undashi hech gap emas. Har birimizdagi bu kabi salbiy sifatlarni bartaraf qilishga hammamiz bir xilday daxldormiz. Bu bunyodkorlik, erksevarlik, vatanparvarlik, do'stparvarlik, sodiqlik, insonparvarlik va ijtimoiy sherikchilikka yo'g'rilgan jamiyatni bizlarga qo'yadigan oltinga teng talabidir. Mazkur oltin qonuniyatni ma'suliyat bilan ado etishimiz barchamizning eng oliy fuqarolik burchimizdir. Bola shaxsini to'g'ri tushunish va uning harakatlarini tahlil qila olish zarur. «Har bir shaxs qaytarilmas temperamentdir», -degan edi fiziolog olim LP.Pavlov.

Psixologik xizmatning amumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'limi maktablarida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi: masalan, o'quvchilardagi kasblarga bo'lgan munosabat o'rganiladi, uni yozib chiqiladi, qaysi kasbga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lsa shu kasbga moyillik xam yuqori hisoblanadi. Emotsiyalarning bo'shlig'i shizoid bolalar uchun eng xarakterli xususiyatdirki, u eng ilk bolalik chog'laridayoq namoyon bo'ladi. Ularda boshqa bolalar bilan faol muomala bo'lishga talab, o'yinchoqlarga qiziqish bo'lmaydi, amaliy faoliyatga intilish yo'q. Bu esa ularning motorikasining yanada rivojlanishiga to'siqlik qiladi. Bu bolalarda voqelik bilan aloqaning bevosita formasi o'rnini ko'proq gaplashib oladi, shu sababli ular da abstrakt mavzularda ko'p savollar berish va fikr yuritish, kitobga barvaqt qiziqish paydo bo'ladi. Ular kitob o'qishni ancha erta boshlaydilar. Bu esa abstrakt fikr yuritishning yaqqol ustun bo'lishiga olib keladi. Bu bolalar bilan

korreksion-tarbiyaviy ishni juda yoshligidan boshlash zarur. Bu ish birinchi navbatda motorikani rivojlantirishga qaratilishi lozim; bolalarni kiyinishga, echinishga, botinka ipini bog‘lash, buyumlarni yaxshilab tanlashga, kubiklar, piramidalar, mozaikalar yasashga, rasm chizishga, rasmlarni bo‘lishga va boshqa shu singari ishlarga o‘rganish zarur. Bolaning etarli bo‘lmagan motorikasini butun choralar bilan o‘stirib borish o‘rniga ota-onalar, ko‘pincha unga haddan ziyod vosiylik qiladilar, bolaning bajarishi lozim bo‘lgan hamma ishlarni o‘zlari qilib, uning harakatlarini takomillashtirishga yanada ko‘proq xalaqit beradilar, amaliy ishga moslashmaganligini kuchaytiradilar. Bunday bolalar maktabda o‘qiy boshlaganlarida pedagog, yuqorida sanab o‘tilgan tadbirlardan tashqari, ularda maktab ko‘nikmalarini, ayniqsa, yozuv ko‘nikmalarini o‘stirishga alohida e‘tibor berish lozim. Shunday ekan maktab psixologi doimo bola bilan aloxida ishlarni amalga oshiruvchi xodimlardan sanaladi. Shunday ekan psixolog maktabda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi asosiy hodimlardan hisoblanadi. Bu salomlashishda bir qator usullardan foydalanish ma‘qulroq, masalan: «qizil panja»-qo‘lni qisish uchun; «ko‘k panja»-sherigining yelkalarini qoqib qo‘yish uchun; «sariq panja»-«orqa bilan» salomlashish uchun. Mashqlarni bajarish jarayonida so‘zlashish ta‘qiqlanadi.

Ushbu mashq ishtirokchilarda bir-birlariga simpatiya uyg‘otishga olib kelishi ham nazarda tutiladi. Ishtirokchilarning o‘zlari bilan o‘tkaziladigan mashqlar qatorida boshqalar bilan birgalikda ishlashga, frustratsiya holatini bartaraf etishga yordam beruvchi mashqlar ham zarur. Bu o‘rinda pedagogik bilimlar bilan bir qatorda psixologik fanlarning ham o‘rni katta ahamiyat kasb etadi.

Ta‘limning barcha turlarini amalga oshirish jarayonida psixologik xizmat, jamoada psixologik munosabatlar kabi ta‘lim bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatlarni o‘rganish va tadqiq qilish masalalariga katta e‘tibor berilmoqda.

Ta‘lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib individual o‘qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu hislatlarning shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.

Ta‘lim tizimidagi psixologik xizmat tizimining ilmiy va amaliy vazifalari turli mamlakatlarda turlicha joriy etilmoqda. Bizning umumiy o‘rta ta‘lim maktablarimizda psixologik xizmat tizimi o‘ziga xos usulda joriy etildi va dastlabki eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B. Qodirov “Psixologiya” 2005-y Toshkent
2. O‘. Asqarova “Pedagogika” 2015-y Namangan.
3. Ziyonet.WWW.Ru